BA'ZI OYKONIMLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Majidova Shahnoza Komilovna
Termiz davlat pedagogika instituti, F.f.f.d (PhD) dotsent
majidovashahnoza59@gmail.com
+998976911408

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatidagi ayrim oykonimlarning etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Toponimlarning shakllanishida tarixiy, etnik, geografik hamda lingvistik omillarning o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida Surxondaryo, Qumqo'rg'on, Bandixon, Jaloyir, Oqqapchig'ay, Xo'jamulki kabi nomlarning kelib chiqishi va semantik ma'nolari izohlandi. Oykonimlarning ayrimlari gidronim, etnonim yoki antroponim asosida shakllanganligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: oykonim, toponim, etimologiya, gidronim, etnonim, Surxondaryo, Qumqo'rg'on.

Аннотация. В данной статье анализируются этимологические особенности некоторых ойконимов Сурхандарьинской области. Освещается роль исторических, этнических, географических и лингвистических факторов в формировании топонимов. В ходе исследования были объяснены происхождение и семантические значения таких названий, как Сурхандарья, Кумкурган, Бандихан, Джалаир, Оккапчигай, Ходжамулки. Установлено, что некоторые ойконимы сформировались на основе гидронимов, этнонимов или антропонимов.

Ключевые слова: ойконим, топоним, этимология, гидроним, этноним, Сурхандарья, Кумкурган.

Abstract. This article analyzes the etymological features of some oikonyms in the Surkhandarya region. It highlights the role of historical, ethnic, geographical, and linguistic factors in the formation of toponyms. During the research, the origins and semantic meanings of such names as Surkhandarya, Qumqo'rg'on, Bandixon, Jaloyir, Oqqapchig'ay, and Xo'jamulki were explained. It was determined that some oikonyms were formed on the basis of hydronyms, ethnonyms, or anthroponyms.

Keywords: oikonym, toponym, etymology, hydronym, ethnonym, Surkhandarya, Qumqo'rg'on.

Joy nomlari xalqning tarixiy xotirasi, etnik tarkibi, yashash tarzi hamda qadimiy madaniyati haqida muhim ma'lumot beradi. Ayniqsa, Surxondaryo vohasidagi oykonimlar o'zining qadimiyligi va ko'p qatlamli semantik tuzilishi bilan ajralib turadi. Ushbu hududdagi ko'plab joy nomlari turkiy, fors-tojik hamda mo'g'ul tillari bilan bog'liq bo'lib, ular tarixiy-etnografik jarayonlarning mahsuli sifatida shakllangan.

Oykonimlarni etimologik jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir. Shu jihatdan maqolada Qumqo'rg'on tumani va unga tutash hududlardagi ayrim oykonimlarning kelib chiqishi tahlil qilinadi.

Surxondaryo – Amudaryoning o'ng irmog'i. Chapdan Qoratog'daryo, Qorasuv, o'ngdan To'polondaryo, Tentaksoy qo'shilgach Surxondaryo hosil bo'ladi. Bu birikma ikki mustaqil leksemadan tashkil topgan. Toponim tarkibidagi surxon forscha surx – qizil, qizg'ish (rang)+on<ob-suv. Surxob qizil suv, qizg'ish tuproqli suv. O'rta asr manbalarida Chag'onrud (qadimgi so'g'd tili: rud-daryo) deb nomlangan. 1941-yil 6-martda Surxondaryo viloyat nomiga aylangan.

Surxondaryo – qizil suvli daryo. Gidronim hisoblanib, keyin viloyat nomi sifatida ishlatilgan.

Qumqo'rg'on – tuman (1971), shahar (1977) qum<xum<xun<xon xona, dargoh; maskan; saroy; karvonsaroy. Xum pishirilgan joydagi qo'rg'on, xumdonli qal'a ma'nolarini anglatadi. Ikki mustaqil leksemadan tashkil topgan.

Bandixon – Forscha – Band+i +xon - Xon bandi ya'ni xon tomonidan qurilgan suv to'g'oni. Ushbu toponim ikkita ma'noli qismdan iboratdir. Xon so'zi o'zbek tilida ma'lum hududning hokimi. Eroniy tillarda xon karvonsaroy, yag'nob va o'rta asr fors tilida xan-kanal, ariq degan ma'noni anglatgan. Bandixon – eroniy tillarga mansub. Dastlab gidronim suv to'planadigan va ayriladigan joy nomi bo'lgan band, xon so'zlari bir xil ma'noga ega: suv to'planadigan joy, band, to'g'on. Band - to'g'on, damba so'zlari bilan sinonim sifatida hozir ham qo'llanadi. Hukumat tomonidan qilingan suv to'g'oni atrofida tashkil bo'lgan qishloq. Surxondaryo viloyatining bir tumani, Denov tumanidagi qishloq, Qumqo'rg'on tumanidagi qishloq va Respublikamizning ba'zi viloyatlarida ham Bandixon nomi bilan ataladi.

Bobolochin – xalq nutqida Bobo – katta, ulkan, ulug', buyuk, muqaddas. Qumqo'rg'on tumanidagi hudud jihatidan eng katta mahallalardan birining nomi. Qishloq Xurosonlik mashhur mashoyix Bobolochinning ismidan olingan. Uning qabri qadimgi **Darzangi shahri** sharqida (Surxondaryoning chap sohili) Surxondaryo va Kakaydi kanali orasidagi uchburchakda joylashgan. Hazrati Bobolochin Xuroson o'lkasidan kelgan bo'lib, qayirning yuqorisida yashagan. Rivoyatlarga ko'ra, Bobolochin Ahmad Yassaviy haqida eshitib, u bilan bahslashish uchun Turkistonga kelgan. Bahsda yengilib, Yassaviyning bilimiga tan bergan. Uni pir deb tutingan. Ahmad Yassaviyning buyrug'iga asosan, u Mingtutga

kelgan va o‘z pirining ta’limotini bu yerliklarga joriy qilish bilan shug‘ullangan. Qadimgi Mingtut hozirgacha o‘z nomini saqlab kelmoqda. O‘rta asrlarda u yirik manzil bo‘lgan. XX asr boshlarida bu yerlar ekinzorlarga aylantirilgan. Bobolochinning bir yarim gektarlik bog‘i va jar labida yerdan o‘yib yasalgan chillaxonasi bo‘lgan. Uning vasiyatiga ko‘ra o‘zi tirikligida ko‘rsatgan joyga dafn etishgan. Qabri ustiga uch metr balandlikdagi ehrom (piramida) shaklida yoqut tosh o‘rnatilgan. Yodgorlik 1938-1939-yillarda ham mavjud bo‘lgan. Bobolochinning qabri bir kechada nobud bo‘lgan. Yillar o‘tishi bilan mahalliy aholi qabrning taxminiy joyi o‘rniga oddiy go‘r shaklida belgi ko‘targan. Bu joy mahaliy aholi orasida hozirgacha muqaddas hisoblanadi. Bobolochin (Bobomochin) haqida Ahmad Yassaviyning Hikmatlar asarida ma’lumot berilgan.

Jaloyir – Qumqo‘rg‘on tumanidagi eng katta mahallalardan birining nomi. Qadimgi Darzangi shahri yonida vujudga kelgan. Jaloyir – o‘tmishda yirik turli tilli qabila bo‘lgan. Eng qadimgi urug‘lardan bo‘lib, bu urug‘ haqidagi dastlabki ma’lumot Rashid ad – Dinning asarida uchraydi. Yetti qabilalardan biri. Amir Temurning qaramog‘idagi qirq aymoqdan 12 tasiga tamg‘a berilgan bo‘lib, ular xos navkarlar qatoriga kiritilgan. Ular orasida Jaloyirlar ham bo‘lgan. Barno Eshpo‘latovning yozishicha Jaloyir so‘zi “Vatanni tark aylaganlar ” degan ma’noni anglatadi. Jaloyir urug‘i yashaydigan qishloq.

Kamarki – Kamrok>karmok>karmak – qo‘rg‘on; tevaragi devor bilan o‘ralgan joy, Karmaki – qo‘rg‘onlik. Forscha kamro – tok, baland devor; qo‘ra, mol qamab qo‘yiladigan qo‘ton. -k affiksi kichiklik, -i affiksi o‘rin joyga nisbat ma’nosini bildiradi. Janubiy O‘zbekiston qo‘ng‘irotlari (Voxtamg‘ali) Gilambobi urug‘ining bir tarmog‘i. Bu so‘z avval etnonim bo‘lib, keyinchalik toponimga

aylangan. Karmakilar yashaydigan qishloq. Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Qiziriq va Qumqo'rg'on tumanlarida shu nomli qishloq mavjud.

Oqqapchig'ay – Bu toponimik leksema ikki ma'noli qismdan iborat. Toponimiyada oq so'zining ma'nolari ko'p: oqmoq fe'lining o'zagi; qor bilan qoplangan baland, yuksak tog'; qo'r suvlari bilan to'yingan daryo; suvi qurimaydigan bo'tana bo'lib oqadigan suv. Qapchig'ay – asos bo'lgan so'z turkiy va mo'g'ul tillariga oid umumiy leksemadir. Mo'g'ul, buryat, qozoq, qirg'iz tillarida – qoya, balandlik; dara, tog' tizmasi orasidagi suv oqadigan chuqur joy. Oqqapchig'ay – suvi qurimaydigan, yozda bo'tana bo'lib oqadigan soyli dara yonidagi qishloq. O'zbek tili leksikasida, hatto shevalarida ham bu so'z qayd etilmagan. Lekin toponimiya bu so'zning o'tmishda bo'lganligini isbotlaydi. XI asrda turkiy tilda suv tarmoqlarining bir-biriga birlashadigan joyi qapchaq deyilishi bu leksemaning qadimiyligini ko'rsatadi. Dastlab orfografik va gidrografik termin bo'lgan, nutqda iste'moldan chiqa boshlagach, obyekt nomiga aylangan: dara va suv oqar joylarning nomi bo'lgan. Qumqo'rg'on tumanidagi qishloq Oqqapchig'ay, Boysun tumanidagi qishloq ham Qapchig'ay nomi bilan ataladi.

Og'zikeng – aslida gidronim. Ikkita ma'noli leksemadan iborat. Og'iz ikki jag' o'rtasidagi ovqatlanish, ovoz chiqarish yoki so'zlash uchun xizmat qiladigan bo'shliq. (odamning og'zi, baliqning og'zi). Egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tovush tushishi hodisasi ro'y bergan. Keng – ichi, ich hajmi, sig'imi sathi katta yoki eni, ko'ndalang o'lchami katta, enli. Tashlab ketish natijasida og'zi nurab qolgan, lekin ichida suvi bor bo'lgan quduq. Toponim avval gidronim bo'lgan, keyinchalik qishloq nomiga aylangan. Og'zikeng – quduq yonidagi qishloq shu nom bilan atalgan.

Qarsaqli – Qarsoq >tulkiga o'xshash, lekin undan kichikroq yirtqich, mo'ynali hayvon. Qozoq, o'zbek tillarida tulkining bir turi. Bu so'z o'zak+affiks (qarsaq+li) dan iborat. O'zbek xalq dostonlarida qarsaq ovlamoq, qarsaqday qotmoq birikmalari bor. Qarsaq totem, muqaddas hayvon, etnonimga asos bo'lgan. Qo'ng'irotlarning Qursoq>g'ursoq>qarsaq urug'i. Etnonim bo'lib, keyinchalik toponimga aylangan. Qarsaqli – qarsaq urug'i yashaydigan qishloq. Surxondaryoning Jarqo'rg'on tumanida Qorag'ursoq (Qarsaq urug'ining bir tarmog'i), Qumqo'rg'on tumanida Qarsaqli qishlog'i mavjud.

Xo'jamulki – ikki mustaqil leksemadan tashkil topgan: Xo'ja+ mulk (i-egalik affiksi). Xo'jalar – dastlabki to'rt xalifa Abu bakr, Umar, Usmon va Alidan tarqalgan avlodlari. Xo'jalar aslzodalikda (oqsuyaklikda) sayyidlardan keyin turganlar. Mulk – shaxsiy boylik, mol, yer-suv, joy va boshqa boyliklar. Xo'jamulki – xo'ja qavmidagi aholining yeri, joyi ma'nosini beradi.

Azlarsoy – soy yerlik yonida qabriston joylashgan qishloq. Shu aholining aytishiga qaraganda soy yonida qabriston va kichik tepalik bo'lgan. Birinchi ko'chib kelganlar soy yoniga uy-joy qurganlar. Ko'chib kelgan aholi qo'y-qo'zilarning tepalik yonidan aylanib o'tishgan holatini kuzatishgan. Tepalikka ot haydasa yurmagan. Shundan keyin aholi bu soyda azizlar, avliyolar bo'lgan deb Azizlar soyi < Azlarsoy deb atashgan. Toponim oldin gidronimga nom bo'lgan, keyinchalik u soy yonidagi qishloqqa nom sifatida ishlatilgan. Ushbu toponim ikkita ma'noli qismdan iborat. Azlar+soy >Azlarsoy. Toponim tarkibidagi Azlar so'zi aslida azizlar so'zining mahaliy tilda qisqartirib aytilishidir.

Arnali – (ornali, onnali deb ham tallafuz qilinadi.) Asli gidronim so'z bo'lib, uning o'zagida arna/orna so'zi yotadi. Qadimgi turkiyda arna, kanal, qirg'izchada arasan-iliq buloq, buryatchada arshaan – muqaddas, shifobaxsh suv; G'arbiy

Osiyoda yashagan qadimgi xurriy tilida arinni-buloq ma'nolarida ishlatilgan. T.Nafasovning ta'kidlashicha, arna, anna so'zining Qashqa-Surxon vohasidagi ma'nolari – kichkina, kengligi 3-4 metr keladigan, uzun soy, sel yuvib ketgan joy, chuqurlik, kichik jar; yer haydash natijasida hosil bo'lgan keraksiz ariqcha va marzalar. Xorazm shevasida esa katta ariq, magistral kanal ma'nolarida ishlatilgan.

Arslonboyli – Qo'ng'irot urug'ining Voxtamg'ali bo'limiga taalluqli urug'lardan birining shaxobchasi. Qishloq aholisi Arslonboylini urug' nomi deb hisoblab, o'zlarini shu urug'dan deb bilishadi. Qishloq nomi etnonim asosida paydo bo'lgan. Sherobod tumanida ham xuddi shunday nomli qishloq mavjud. Qumqo'rg'on tumanida esa katta mahalla Arslonboyli nomi bilan atalgan.

Kattako'l – bu hudud o'zlashtirilmagan yer bo'lib, 1920-1922-yillarda qo'shni Boysun tumanidan aholi ko'chib kelib chorvachilik bilan shug'ullangan. Bahorgi yog'ingarchilik, sel suvlarining oldini to'sib, katta ko'l hosil qilishgan va mol, qo'y-qo'zilar mana shu ko'ldan suv ichgan. Aholi o'rtasida shu hudud ham Katta ko'l nomini olgan. Gidronim hisoblanadi. Katta ko'l yonidagi qishloq.

Munchoqtepa – Burj(f.t) – ak so'zining o'zgargani – munchoq, ya'ni qal'a, minorasi bor tepalik, burj – qal'a, qo'rg'on, mezana. -ak qo'shimchasi kichik ma'nosini anglatadi. Tepa – yer sathidan baland, do'ng joy. Munchoqtepa – kichik qal'ali tepalik ma'nosini beradi. Bu hududda milodiy 6 asrlarda turli taqinchoqlar, xumlar va boshqa buyumlar yasaladigan qal'a va atrofi tepaliklardan iborat bo'lgan. Hozirda tepaliklar tekislanib aholi yashaydigan hududga aylantirilgan. Munchoqtepa kichik qal'ali tepalik yonidagi qishloq ma'nosini anglatgan.

Yangiobod – yangidan o'zlashtirilib, obod qilingan qishloq. Vaqt jihatidan keyingi davrlarda yaratilgan qishloq. Ikki mustaqil leksemadan iborat: yangi, obod. Obod – eroniy tillarga oid so'z. X asr manbalari – Istaxriy, Ibn Havqal asarlari va

"Hudud-ul olam" da obod komponentli nomlar yo'q. Obod so'zi XII-XIII asrlarda ko'p uchraydi. Belgi bildiruvchi (yangi, katta) so'zlarga qo'shilib qishloq nomini yasashi dehqonchilik madaniyatining yuksalishi, qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq. Respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida ham bu toponimik so'z uchraydi. Surxondaryo viloyatining Denov, Muzrobot, Qumqo'rg'on tumanida Yangiobod nomli qishloq mavjud.

Qiyg'ochli – urug' nomi. Qo'ng'irotlarning vohtamg'ali bo'limi tarkibidagi 16 urug'ning biri. Ba'zi qipchoq shevalarida qaldirg'ochning bir turi – qiyg'och. Urug' nomiga totem – sig'iniladigan parranda asos bo'lgan. Urug'iga qarab qishloq nomlangan. Sherobod tumanida ham Qiyg'ochli qishlog'i bor.

Surxondaryo vohasidagi oykonimlar turli tarixiy-lingvistik qatlamlarni o'zida mujassamlashtirgan. Tadqiq etilgan joy nomlarining ayrimlari gidronim, ayrimlari etnonim yoki antroponim asosida shakllangan. Toponimlarning etimologik tahlili hududning qadimiy tarixi, etnik tarkibi va xalqning dunyoqarashi haqida muhim ma'lumot beradi. Ayniqsa, Qumqo'rg'on hududidagi oykonimlar tarkibida turkiy, fors-tojik va mo'g'ul tillariga oid unsurlar keng uchraydi. Bu esa Surxondaryo vohasining qadimdan turli madaniyatlar chorrahasi bo'lganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Tursunov, Q.Eshboyev. Qumqo'rg'on tarixidan lavhalar. Toshkent, 2019.
2. T.Nafasov, V.Nafasova. O'zbekiston toponimlari izohli lug'ati. Toshkent, 1988.
3. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).